



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-AVGUST**

2023- yilning yanvar-avgust oylarida Buxoro viloyatida jami **5 821,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

14,1

30,5

55,4

Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2023- yil 1- sentabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



1 456

Bino va inshootlar
qurish


460

Fuqarolik obyektlarini
qurish

710

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 88,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 55,5 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,4 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 17,5 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 131,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,0 foiz ulushni va 85,0 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.09.2022- y.	01.09.2023- y.	
Buxoro viloyati	2 972	2 626	88,1
Buxoro shahri	964	821	85,2
Kogon shahri	133	109	82,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	79	73	92,4
Buxoro	227	187	82,4
Vobkent	124	116	93,5
G'ijduvon	201	145	72,1
Kogon	146	148	101,4
Qorako'l	115	115	100,0
Qorovulbozor	58	57	98,3
Peshko'	183	166	90,7
Romitan	262	248	94,7
Jondor	235	210	89,4
Shofirkon	245	231	94,3



**2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,3)



Romitan t. (9,4)



Shofirkon t. (8,8)



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	5 821,5	818,9	3 223,5	1 779,1
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 440,7	246,4	892,1	302,2
Kogon sh.	234,2	92,9	111,2	30,1
<i>tuman:</i>				
Olot	338,3	89,3	102,1	146,9
Buxoro	392,0	12,9	218,7	160,4
Vobkent	295,8	-	210,6	85,2
G'ijduvon	471,3	0,1	194,6	276,6
Kogon	428,5	3,4	290,9	134,2
Qorako'l	233,5	6,7	104,1	122,7
Qorovulbozor	225,7	158,1	49,9	17,7
Peshko'	397,3	-	265,8	131,5
Romitan	606,1	193,1	243,1	169,9
Jondor	321,7	-	212,0	109,7
Shofirkon	436,4	16,0	328,4	92,0


2023- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 818,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,4 % punktga kamayib, 14,1 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2023- yil yanvar-avgust uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 70,2 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 84,1%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,7% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 40,1 %) ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 55,4 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning ko'rsatkichiga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,3% ni tashkil etgan holda 3 223,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



55,4

2023-yil
yanvar-avgust

55,1

2022- yil
yanvar-avgust



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (328,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 75,2 %), Vobkent tumanida (210,6 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 71,2 %) va Kogon tumanida (290,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 67,9 %) ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 30,5 % ni tashkil etdi yoki 1 779,1 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 297,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 5 523,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 5,1 % va 94,9 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-avgust oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **71,5 %** i yoki **4 163,9 mlrd. soʻm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

11,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **464,8 mlrd. soʻmlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **2 140,4 mlrd. soʻm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,4 %** ni tashkil etdi.

51,4 %

37,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 558,7 mlrd. soʻm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **37,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	5 821,5	100,9	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	1 440,7	108,0	24,8
Kogon sh.	234,2	64,2	4,0
<i>tuman:</i>			
Olot	338,3	100,1	5,8
Buxoro	392,0	103,3	6,7
Vobkent	295,8	101,4	5,1
G'ijduvon	471,3	102,9	8,1
Kogon	428,5	94,4	7,4
Qorako'l	233,5	112,8	4,0
Qorovulbozor	225,7	81,7	3,9
Peshko'	397,3	102,0	6,8
Romitan	606,1	113,1	10,4
Jondor	321,7	106,1	5,5
Shofirkon	436,4	100,0	7,5



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,5 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib, 45,5 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'payib, 48,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,0 % ni tashkil etdi va 2022-yilga nisbatan 2,6 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,0 % (2,6 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




Yirik qurilish tashkilotlari
2022-yil yanvar-avgust



2023-yil yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi va 40,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 59,4 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	5 821,5	3 702,9	1 502,7	615,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 440,7	794,4	538,4	107,9
Kogon sh.	234,2	98,2	94,5	41,5
<i>tuman:</i>				
Olot	338,3	198,5	42,1	97,7
Buxoro	392,0	278,1	88,8	25,1
Vobkent	295,8	206,2	69,3	20,3
G'ijduvon	471,3	379,3	71,1	20,9
Kogon	428,5	293,0	100,3	35,2
Qorako'l	233,5	172,7	46,0	14,8
Qorovulbozor	225,7	77,0	17,6	131,1
Peshko'	397,3	259,4	106,8	31,1
Romitan	606,1	477,3	102,5	26,3
Jondor	321,7	210,1	87,3	24,3
Shofirkon	436,4	258,7	138,0	39,7



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 886,1	99,2
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	4 961,1	106,0
Kogon sh.	3 659,4	62,9
<i>tuman:</i>		
Olot	3 278,1	98,6
Buxoro	2 233,6	101,7
Vobkent	2 020,5	99,7
G'ijduvon	1 480,2	101,1
Kogon	5 156,4	92,4
Qorako'l	1 373,5	111,4
Qorovulbozor	11 515,3	80,0
Peshko'	3 072,7	100,3
Romitan	4 054,2	111,1
Jondor	1 759,8	104,3
Shofirkon	2 360,2	98,6



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-avgust uchun



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-avgust oylariida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 11 515,3 ming so'm (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 80,0 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 5 156,4 ming so'm (yoki 92,4 %), Buxoro shahri – 4 961,1 ming so'm (yoki 106,0 %), Romitan tumani – 4 054,2 ming so'm (yoki 111,1 %) va Kogon shahri – 3 659,4 ming so'm (yoki 62,9 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**